O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2023 - yil 20 - dekabr 371-8-117-Q/23 Termiz tuman hokimligi

Termiz tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki yo‘llar va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida “Yangi hayot” mahallasi hududida joylashgan 4-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti oldidan o‘tgan ichki avtomobil yo‘liga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-190-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12- apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-sonli qarorlari hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”ga muvofiq, avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘ligini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari – avtomobil yo‘llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda – jamoat transporti – velotransport – avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash uchun sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida” Qonunining 7, 10, 20-moddalari, Termiz tumani ichki ishlar bo‘limi JHX YHXG ning 2023-yil 21-noyabrdagi 24/27-sonli xati, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Termiz tuman adliya bo‘limining 2023-yil 15-noyabrdagi 1-40/1-7/52-son aloqa xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va inobatga olinsin.

2. Termiz tumani “Yangi hayot” mahallasi hududida joylashgan 4-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti oldidan o‘tgan ichki avtomobil yo‘liga O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019-talablari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori talablari asosida sun’iy yo‘l notekisliklari o‘rnatilsin.

Hozirgi kunga qadar mavjud bo‘lgan, ammo hajm jihatidan (balandligi, eni, bo‘yi) O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019-talablariga nomuvofiq bo‘lgan sun’iy yo‘l notekisliklar, O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablariga muvofiqlashtirilsin.

3. Termiz tuman IIB Yo‘l yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (A.Rasulov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (N.Berdiev), “Yangi hayot” mahallasi hududida joylashgan 4-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda o‘rnatish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin. Bunda, sun’iy notekislikdan 30 metrdan kam bo‘lmagan masofada Yo‘l harakati qoidalari 1-ilovasi bilan tasdiqlangan 1.31 “Sun’iy yo‘l notekisligi” ogohlantiruvchi (yo‘lning sun’iy notekislik o‘rnatilgan qismiga yaqinlashayotganligi to‘g‘risida ogohlantiradi) belgisi o‘rnatilishi ta’minlansin.

4. “Janub quyoshi” gazetasi tahririyati va tuman hokimligining axborot xizmatiga ushbu qarorning tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga hamda boshqa OAVlarda keng yoritishini ta‘minlasin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Djurayev, Termiz tuman Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i O‘.Mustafoqulov zimmasiga yuklansin.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**